

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK
HOLATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Farg'ona viloyati Beshariq tumani 8-tayanch DMTT direktor o'rinbosari
Abduqodirova Fazilatxon Tolibjonovna**

Yurtimizda barcha ta'lim turlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'limda ham juda katta islohatlar olib borilmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-son qarori va 2016 yil 29 dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651- sonli qarori ayniqsa, 2017 yil 30 sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarorlari natijasi o'laroq bu tizimda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining metodik jihozlar bilan ta'minlanishi va turli xil innovatsion usullar asosida mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish vazifasi barcha tarbiyachilarga asosiy vazifalar sifatida qaralayotgani barchamizga sir emas. Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiyatini shakllanishi ko'p jihatdan ularning faoliyat turlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, bola o'yin, mehnat, o'quv faoliyatlari asosida hayotiy tajribasi oshib boradi bu esa ularda tafakkur jarayonini shakllanishiga asos bo'ladi. Tafakkur jarayonining shakllanishi borliqda bo'layotgan voqea hodisalarni anglashga, munosabat bildirishiga, bog'liqligi va farqlarini bilishga olib keladi. Hozirgi kunimizda barcha ta'lim turlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim turida ham juda katta modernizatsiya jarayoni amalga oshiyatganini barchamiz bo'layotgan o'zgarishlardan his qilib turibmiz.

Maktabgacha ta'limda faoliyat olib boruvchi pedagog nafaqat pedagogik savodxonlikning yuqori kopitensiyasiga ega bo'libgina qolmasdan, bolalarning psixik jarayonlari, psixik holatlari, individual psixologik xususiyatlarining rivojlanish qonuniyatlarini ham bilishlari shart.

Maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim-tarbiyaning qonuniyatlari, shakl, metodlari, vositalari innovatsion usullarini yuqori darajada o'zlashtirgan mutaxassis maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik holatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib qo'llasa, bu mashg'ulot albatta o'zining samarali natijasini beradi.

Bola faoliyati atrof olamni va o'zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan munosabat jarayonida xilma-xil emotsiya hamda hissiyotlarni o'zidan o'tkazadi. U atrofda berayotgan hamda o'zi qilayotgan narsalaiga muayyan munosabatda bo'ladi. Ana shu munosabat bolada ma'lum bir emotsiya va hissiyotlarni tug'diradi. Emotsiya

va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo'lgan munosabati, biror-bir ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalarida namoyon bo'ladi.

Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishining quyidagi umumiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- bola hayotiy vaziyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda emotsional holatlarning shakllanishi;
- emotsiyalar asosida oliy hissiyotlarning shakllanishi;
- emotsiya va hissiyotlarning shaxsiy tuzilmalar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi.¹

Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq. Bolaning vaziyatni tushunish, vaziyat va undagi o'zgarishlarni boshdan kechirish muayyan emotsional holatni hosil qiladi .

P.M. Yakobson ko'rsatib o'tganidek, maktabgacha yosh davrida hissiyotning bola harakatlarini motivi sifatidagi roli o'zgarib boradi. 3 yoshgacha bolaning harakatlari nima yoqimsiz-u, nima yoqimli ekanini anglashga asoslanadi. 3-4 yoshda boladagi jahl, qo'rquv, qayg'urish darhol uni harakatga undaydi. U boshqa bola bilan urishadi, o'yinchoqni tortib oladi yoki kimgadir rahmi kelayotganini ko'rsatadi. 4-5 yoshli bola o'z xarakatlarida hissiyotlarini bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Emotsiya va hissiyotlar boshqaruv funksiyasini bajarib, bolaning xulq-atvorini qayta qurishga yordam beradi.

Emotsional kechinmalar, xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, yo'naltiradi yoki tormozlaydi. Bolaning xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan kattalarning ta'sirlari va talablari bola tomonidan emotsional qabul qilinsa, bola harakatlarining undovchisi bo'lib xizmat qiladi va emotsional javobni uyg'otadi. Bolada oliy (ahloqiy hissiyotlar, bilish xissiyotlari) shakllanishi uchun unda yaxshilik va yomonlik go'zallik va xunuklik haqida tushuncha hamda bilish ehtiyoji shakllangan bo'lishi lozim. Hissiyotlar asta-sekin shakllanib boradi. Dastlab bolalar hodisalarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini, keyinchalik ularning umumiy ma'nosini tushunadilar.

Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Oliy hissiyotlarga intellektual, estetik va axloqiy hissiyotlar kiradi.

M.I.Lismaning tadqiqotlari ko'rsatishicha, emotsiya va hissiyotlar bolaning kattalari va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqoti jarayonida shakllanadi. Bu jihatni O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasining kichik uchinchi "Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot" sohasida ham asosiy

¹ Nishonova Z, Alimova G. Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi. O'quv qo'llanma. "Adabiyot jamg'armasi". Toshkent 2006.88-bet.

talab sifatida keltirilgan.² Demakki, tarbiyachi bolalarni emotsional holatlarini rivojlantirishni nazarda tutar ekan oilda va MTMda bola bilan bo'ladigan muloqot ko'lamini kengaytiruvchi shart –sharoitlarni imkoni qadar kengaytirishga alohida e'tibor qaratmog'i lozim.

Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi quyidagilarga:

- mashg'ulot metodikasini tanlashda bolalar xohishlarini hisobga olsa;
- mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalarda mashg'ulotga qiziqishini hosil qiluvchi "Enerjayzer" usullaridan foydalansa;
- mashg'ulotlar davomiyligini ularning holatidan kelib chiqib belgilasa;
- jamoviy ishlash prinsipiga asoslanilsa;
- bolalarning individual psixik xususiyatlarini hisobga olsa va shu kabilarga amal qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

² O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent. 2018.5-bet.